

O'ZBEK TILIDA PAYT MUNOSABATINI IFODALOVCHI LISONIY VOSITALAR

Sheraliyeva Dilnozaxon Qurvonali qizi

FarDU Lingvistika:o'zbek tili yo'nalishi II kursmagistranti

Turkiy tillarda o'rin-payt kelishigi o'rin munosabati bilan birga payt munosabatini ham ifodalab kelgan. Buni "Devonu lug'otit-turk" va "Qutadg'u bilig" asarlarida qo'llanilgan o'rin-payt kelishigi payt ma'nosini ifodalab kelganidan bilishimiz mumkin. Ammo u davr tilida ushbu kelishik faqat fe'llarga bog'lanish asosidagina payt ma'nosini bildirib kelgan. Bugungi kunga kelib turkiy tillarda, shuningdek hozirgi o'zbek adabiy tilida o'rin-payt kelishigi otlarga bog'lanish asosida, payt ma'nosini ifodalaydi.

"Hozirgi o'zbek adabiy tilida payt munosabatli konstruksiyalar boshqa kelishikli konstruksiyalarga nisbatan o'rin payt kelishigida ko'p uchraydi. Tilda konstruksiyalarning payt ma'nosini bildirishi ko'p holatlarda uning tobe komponentiga bog'liq".¹ O'rin-payt kelishigidagi payt munosabati birikmalarning tobe qismi payt bildiruvchi so'zlar va leksik ma'nosi payt bildirmaydigan so'zlar orqali tuziladi. Bunda tobe qism aniqlovchili va aniqlovchisiz kelishi mumkin. **Tobe qismi bevosita payt bildirmaydigan so'zlar bilan ifodalangan so'z birikmalaridagi** tobe qism birikma ichidagina o'rin-payt kelishigi vositasida payt ma'nosini ifodalab, payt munosabatli birikma hosil qiladi. Bunday so'zlarga turli jarayon, holatlarni bildiruvchi *kanikul, otpuska (mehnat ta'tili), ovqat, dars, ish, urush, majlis, tabrik, bayram, tiriklik, to'y, himoya, umr* kabilar kiradi. Buni quyidagi asarlardan olingan parchalar misolida tahlil qilamiz.

Namuncha **kanikulda** ham kitob ko'tarib yurmasang?-yumshadi Sayfi.

(F.Musajon "Bo'sh kelma, Aliqulov" qissasidan)

Akamning **to'yida** men esimni tanishga ulgirmagan bir bolakay edim.

(O.Yoqubov "Yaxshilik" hikoyasidan)

Bugun **bayramda** tabrik aytish uchun tayyorgarlik ko'ra boshladim-u, lekin ichimda hayajon borgan sari kuchayib borardi.

(O.Yoqubov "Sevgi qissalari" to'plamidan)

Ular ikkisi **ishda** dahanaki janjallashib qolishdi-yu yuzko'rmas bo'lib ketishdi.²

(E.A'zam "Yettinchi tulki" hikoyasidan)

¹ Тўйчибоев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида от бирикмалар синонимияси.- КД Тошкент, 1973, 40-б.

² Erkin A'zam. Olam yam-yashil. Hikoyalar.-Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. (Qarang: keying o'rinlarda keltrilgan parchalar ushbu to'plamdan olingan)



Lekin pedagogika degan darsda bu haqda aytilmaganmikan....

(S.Zunnunova “Momo” hikoyasidan)

Majlisda qishloq oqsoqoli uzundan-uzoq nutq so‘zlab, barchaning uyqusini keltirib yubordi.

(E.A’zam “Aralash qo‘rg‘on” hikoyasidan)

U ovqatda ikki payola choyni qaynoq-qaynoq ho‘pladi-da, mudrab qoldi.

(S.Ahmad “Ufq” romanidan)

Shu Ikrom uchun, urushda oyog‘ini yo‘qotib kelgan Bolshevik o‘rtog‘im hurmati oraga tushmoqchiman.

(S.Ahmad “Ufq” romanidan)

Marhum tirikligida qanday inson bo‘lgan, savobli amallarni bajarganmi?,- deb mulla atrofdagi odamlardan so‘rabdi.³

(Hikoyatdan)

Yuqoridagi asarlardan olingan parchalarda ko‘rinib turibdiki, asli ot so‘z turkumiga mansub so‘zlar qachonki, o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasini olsagina payt ma‘nosini bildiradi va ular payt otlari ya‘ni faoliyat – jarayon otlari deyiladi. Ularga kontekstdan tashqarida nima deb so‘roq beriladi va ular ot so‘z turkumiga mansub bo‘ladi va bosh kelishikda ega vazifasida keladi. Lekin tobe qism tarkibida -da o‘rin payt qo‘shimchasini olgandagina payt ma‘nosini bildiradi va payt holi vazifasini bajarib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент, 1992.
2. Абдурахмонов Ғ. Қўшма гап синтаксиси асослари.—Тошкент, 1958.
3. Березин Ф. М. История лингвистических учений. —Москва, 1975.
4. Багородицкий Б. А. Введение в татарское языкознание. – Казань, 1953.
5. Haydarov Z. Nomoddiy madaniy meros fanidan maruzalar to‘plami.—Namangan, 2014.
6. Lutfullayeva D., Nishonova S. “Hozirgi o‘zbek tili” fanidan o‘quv uslubiy majmua (Qo‘shma gap sintaksisi, punktuatsiya).—Angren, 2008.

³ <https://ziyouz.com> saytidan(Qarang: barcha hikoyatlardan parchalar ushbu saytdan olingan)



7. Madvaliyev A. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.–Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
 8. Madvaliyev A. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.
 9. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi.–Toshkent:O‘qituvchi, 1995.
 10. Mamajonov A., Abdurahmonov M. Matn stilistikasi. –Farg‘ona, 2002.
 11. Mamajonov A., Abdurahmonov M. Matn nazariyasi. –Farg‘ona, 2016.
 12. Мамажонов А., Махмудов У. Услужий воситалар.–Тошкент, 1996.
 13. Mamajonov A. Qo’shma gap stilistikasi.–Tashkent: Fan, 1990.
 - 14..Мамажонов А. Текст лингвистикаси.–Тошкент: Фан, 1984.
1. <https://daryo.uz>
 2. <https://facebook.com>
 3. <https://hozir.org> o

